

## “NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TAXLILI”

**Ismatullayeva Nigoraxon Nazirbekovna**

**NamDChTI nemis tili magistratura mutaxassisligi 2-kurs talabasi**

### ANNOTATSIYA

Tilshunoslikda frazeologiya sohasi mustaqil yo‘nalishlardan biridir. Frazeologiya hozirgi zamon tilshunosligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, har bir tildagi turg‘un birikmalarning ma‘nosi va tuzilishini o‘rganadi. Mazkur maqolada nemis va o‘zbek tillarida frazeologizmlarning semantik taxlili haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, frazeologizm, tarmoq, nemis tili, yo‘nalish, o‘zbek tili, semantika, birikmalar.

Frazeologizmlar - bu hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo‘lib, tildagi mavjud so‘z birikmalarining umumiy hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko‘p aspektli til hodisasi hisoblanadi.

Turli tillar singari nemis va o‘zbek tillarida juda ko‘p o‘tkir tig‘li, obrazli frazeologik birikmalar mavjud. Ular tilda bir necha yuz yillardan buyon mavjud bo‘lib, ko‘pgina iboralar og‘izdan-og‘izga ko‘chib, har bir milliy tilning ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Frazeologizmlar emotsionallikni ifodalaganligi uchun ham ular yordamida quvnoq hazilni yoki bo‘lmasa qayg‘uli voqeani obrazli tasvirlab berish mumkin. V.V.Vinogradov klassifikatsiyasidan kelib chiqib, nemis frazeologiyasida salmoqli ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar M.D.Stepanova va I.I.Chernishova frazeologizmlarni funksional tamoyil asosida tasnif qilib ikki katta guruhga bo‘ladi, ya‘ni:

1. Lexikalische Einheiten.
2. Phraseologische Fügungen.

Bundan tashqari nemis frazeologiyasini boshqacha klassifikatsiyalashga urinishlar ham mavjud. Ana shunday klassifikatsiyalarga binoan kishilarning tashqi qiyofasini ifodalovchi, ya‘ni juda baland yoki, aksincha, juda past bo‘y, juda ham ozg‘in yoki, aksincha, juda semiz beso‘naqaylik, harakatlardagi beo‘xshovliklar va boshqalarni ifodalovchi ko‘plab frazeologizmlar mavjud. Bunday frazeologizmlar

qoida bo'yicha hazil va kinoya asosida qurilgan bo'ladi, ammo ba'zida ular nimasi bilandir laqabga o'xshab ketadi, gohida kulgili, gohida qayg'uli bo'ladi.

Masalan, nemis qishloqlarida qadimdan "Der Hopfen" (chirmashib o'sadigan o'simlik), "Die Bohnen" (loviya) o'simliklari yetishtiriladi. Ularning novdalari so'kichlar yordamida ko'tariladi.

Boshqa bir qancha frazeologizmlar ham nemis tilida baland bo'yli kishini ifodalash uchun hazil va kinoya aralash qo'llaniladi: eine lange Latte (uzun tayoq), ein langes Ende yoki undendlich Lang (cheki yo'q). Bu iboralar "lang" so'zisiz qo'llanilmaydi. Baland bo'yli odamni oddiy "tayoq"ga yoki bo'lmasa "cheki yo'q" narsaga o'xshatib bo'lmaydi, chunki tayoq qisqa bo'lishi va shu bilan birga cheki bor narsa bo'lishi ham mumkin. Demak, "lang" so'zi o'sha frazeologizmlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, frazeologizmlarni qo'llashda, iboralarning grammatik va leksik negizida qandaydir o'zgarishlar ro'y beradi: Pashshadan fil yasama! U doim pashshadan fil yasaydi! Aus einer Mucke einen Elefanten machen! Er macht immer aus seiner Mucke einen Elefanten! Wasser ins Meer tragen, Wasser ins Haus tragen, Wasser in den Garten tragen (bekorchilik qilmoq) Ammo frazeologizmlarning leksik va grammatik tarkibi o'zgargani bilan uning ma'nosi o'zgarmaydi. Bunda matnning ma'nosidan uzoqlashmagan holda tarjima qilishi mumkin. Avval matnning syujeti, uning stilistik bo'yoqdorligi va obrazlarning kelib chiqishiga qarab ikkinchi tildan frazeologizmlarning muqobil variantini topishi lozim. Demak, tarjimada ijtimoiy shaxsiy chegaradan tashqari lingvoetnik to'siq ham mavjuddir. Tarjimaning asosiy vazifasi esa tarjima qilinayotgan asardagi bu chegara va to'siqni olib tashlashdan iboratdir.

Masalan, nemis tilida "Ein Wolf im Schafspelz" (qo'y terisini yopinib olgan bo'ri, ya'ni buning ostida ko'rinishidan o'zini odatiy va osoyishta tutadigan ammo qalbi pok emas inson ma'nosi yashiringan) iborasi mavjud. Bu iborani o'zbek tilida ekvivalenti mavjud bo'lib, bevosita shakl va ma'nosidan qochmagan holda qo'llaniladi. Ammo nemis tilidagi "ein alter Hase" iborasi so'zma-so'z o'zbek tiliga "qari quyon" tarzida tarjima qilinadi, lekin bu holatda ibora o'z denotativ ma'nosini yo'qotadi. Ushbu iboraning o'zbek tilida muqobil variant yo'q ekanligi bois bu ibora "o'z ishining ustasi, katta tajribaga ega mutaxassis" kabi tarjima qilinadi. Frazeologizmlar nemis tilshunosligida o'rganila boshlagach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish masalasi ko'tarila boshlandi. Nemis tilshunos olimlari frazeologizmlarni turlicha yondashuvlar asosida klassifikatsiyalashgan.

Masalan, M. D. Stepanova hamda I.I.Chernishyovalar frazeologizmlarning strukturaviy hamda semantik jihatdan tasniflagan. Teo Shippan ham

frazeologizmlarning ikki turini ajratib ko'rsatgan, ya'ni frazeologik butunlik va turg'un birikmalar. Yana bir tilshunos olim U. Fiks esa, frazeologizmlarni erkin gap bilan taqqoslaganda, fe'llar ma'nosining mos kelishi yoki mos kelmasligiga ko'ra ikki turini farqlaydi. Demak, tilshunos olimlar frazeologizmlarni turli xil jihatlarini o'rganishga urinishgan.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi frazeologiya ham o'zining o'rganish obyektiga ega. Frazeologiyaning o'rganish objekti o'z navbatida shunday murakkab va o'ziga xoski, uni o'rganish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan tilshunoslik fanlari rivojlanishiga yangi manbalar yaratadi. Frazeologiya nemis tilshunosligida umuman olganda asosiy mavzu ekanligi allaqachon isbotlab ko'rsatib berilgan. Avvalombor, muhokamada tasniflash masalasi turadi. Frazeologizmlarda so'z yasalishidagidek struktur tiplari va yasalish elementlari (affikslar) ning alohida sistemasi mavjud emas. Mavzu so'z gruppalari va gaplar haqida ketganligi tufayli so'zlar uchun qo'llanila oladigan tasniflash kriteriyalari frazeologizmlarda to'liq ko'chirilmaydi.

Bu yerda qandaydir tur klassifikatsiyasi haqida gap ketayotgani yo'q, balki kamdan- kam uchraydigan hodisalar, ya'ni frazeologizmlarning funksiyasi va mazmun- mohiyatidagi nuqtai- nazar, qarashlar, ularning turg'unligi va boshqa til birliklari bilan o'zgaruvchanlik aloqalarini ko'rib chiqish haqida ketmoqda. Frazeologizmlar haqli ravishda lug'at boyligining birliklari sifatida tadqiq qilinishi va xuddi so'zlar kabi tasvirlanishi lozim.

Bu misol uchun frazeologizmlar va alohida so'zlar uchun asosiy umumiy tushuncha sifatida leksema terminining qo'llanilishida o'z ifodasini topadi. Yaxlit holda keltirilgan frazeologiya xuddi sintaxis va morfologiya kabi chambarchas bog'liq yo'nalish sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. N. Teliya ham muammoli masala sifatida frazeologiyaning ko'rinishini leksikologiya bilan yonma- yon mustaqil bo'lim sifatida ajratdi va til sistemasi bo'limlarida batafsil asoslash bilan frazeologik qatlamning yuzaga kelishini rad etadi va tilning leksik semantik birligi sifatida e'tirof etilgan so'zning muammoli masalalaridan an'anaviy frazeologiyaning muammoli masalalarini ajratishni frazeologik tadqiqotlarning kamchiliklaridan biri deb izoh berdi.

Nemis tilshunos olimi X. Burger ham frazeologizmlar masalalari bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirgan. U asosan idiomalarning stilistik aspektlariga va ularni tarjima qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U frazeologizmlarning bir guruhi sifatida idiomalarni sharhlab o'tgan. X. Burgerning fikricha, birikmaning umumiy ma'nosi qoidadan mustasno tarzda talqin qilinadi. Bunda ko'rsatilgan ko'chma ma'noli so'z birikmalari yoki ularning umumiy ma'nolari hech qanday holatda komponentlarning erkin ma'nosidan tushunilmaydi. Nemis tilshunosligida

frazeologiyaning alohida soha sifatida shakllanish jarayoni davom etmoqda va ushbu sohada ko‘plab yangiliklar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan frazeologiyaning yechilishi lozim bo‘lgan muammoli qismlari, ushbu sohaning naqadar chuqur o‘rganish kerakligini yaqqol ko‘rsatib bermoqda. Aql va qobiliyat–insondagi shunday ichki sifatlardirki, shular orqali har bir inson ichki dunyosiga baho beriladi. Shuning uchun ham: “Kiyimiga qarab kutib olinadi va aqliga qarab kuzatib qo‘yiladi” deyiladi. Nemis tilida bu “Man empängt den Mann nach dem Gewand und entlasst ihn nach dem Verstand” deyiladi.

O‘zbek tilida ham, nemis tilida ham bu yerda bir xil fikr ifodalangan, ya’ni chiroyli kiyim va tashqi go‘zallik ostida ham ba’zida ichki bo‘shliq mavjud ekanligini anglashimiz mumkin. Xulosa So‘zimiz yakunida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, frazeologizmlar har bir tilda muhim til birligi hisoblanib ularni qo‘llash bilan fikrni to‘liq bayon qilishda foydalaniladi. Tarjimon esa matndagi frazeologizmlarni tarjima qilishda to‘g‘ri ekvivalentni tanlash orqali yozuvchining fikrini va hissiyotlarini to‘lalgicha kitobxonga yetkazib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hans Shemann . Deutsche Idiomatic. Shtuttgart, Drezden, 1993. Chernischewa II Feste Wortkomplex des Deutschen in Sprache und Rede. Moskva, 1980 yil. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexicology. Leningrad, 1970 yil. Imyaminova Sh . nemis leksikologiya ( matn ma'ruzalar ). - T .: Universitet, 2010 yil.
2. Vinogradov V.S. Перевод. Общие и лексические вопросы. М.: Университет, 2006
3. Barisova I.F., Imyaminov Sh.S. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent,Universitet, 2005
4. Kazakova T. A.” Художественный перевод. Теория и практика”, Инъязиздат, 2006
5. Rudi Konrad. Lexikon der sprachwissenschaftliche Termini, VEB. Bibliografiya Institut , Leyptsig, 2018.